

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TABIAT BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTLARINI IJODIY TASHKIL ETISH.

Rashidova Dildora Mansur qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari va ularni yangicha metodlarda, texnologiyalarda tashkil etish, bolalarni mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini oshirish haqida yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, texnologiya, maktabgacha ta'lim, tabiat bilan tanishtirish, o'yin, tajriba, multimedia.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bolalarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda bolalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Tarbiyachi-pedagog bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Innovatsion texnologiyalar takomillashib borgan sari ulardan ta'lim jarayonida foydalanish pedagoglar oldiga yangi vazifalarni yuklab boradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion

texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog va tarbiyalanuvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va tarbiyanuvchining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- Tarbiyanuvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- Tarbiyalanuvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taminlashi;

- Tarbiyalanuvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va tarbiyalanuvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish borasida hozirgi kunda doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik va barkamollik ruhida tarbiyalash maqsadida avvalo hissiy-emotsional mo'tadillikni saqlashga e'tibor qaratiladi. Chunki insonning ichki dunyosi uning his-tuyg'ularida shakllanadi. Shuning uchun har bir ta'lim yangiligi o'zida insondagi ichki muvozanatni saqlash bilan hamohanglikka intilib boradi. Ma'lumki, maktabgacha yosh davrining har bir yosh bosqichi o'zlashtirish sifati jihatidan keskin farqlanadi. Maktabgacha kichik, o'rta, katta va tayyorlov yoshidagi bolalar orasidagi farq aniq ko'zga tashlanib turadi. Ammo har bir o'sish va rivojlanish bosqichidagi bolalarda tashqi olamni ixtiyorsiz ravishda idrok etish jarayoni kechadi. Shuning uchun mutaxassislar maktabgacha yosh davridagi bolalarga yangi bilimlarni berishda dastlabki yetti minut qoidasiga amal qilishni ta'kidlab o'tishadi. Chunki bolaning diqqati aynan ushbu vaqt davomida barqarorlashadi. Demak, boshqa soha egalaridan farqli ravishda tarbiyachi-

pedagoglarning kasbiy mahoratga ega bo'lishi juda muhim sanaladi. Bolaga yetkazilishi kerak bo'lgan ma'lumotni shu daqiqalar ichida shakllantira olgan pedagoggina ta'limiy maqsadni bajargan hisoblanadi. Yuksak mahoratni talab etuvchi bu jarayonda afsuski, har qanday pedagog ham kutilgan natijaga erishishi mushkul. Shuning uchun bolalarda yangi bilimni hosil qilishda noan'anaviy metodlar ta'lim sifatini ko'tarishda ko'maklashadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar mavjud va ular takomillashib bormoqda.

2018-2019 o'quv yilidan e'tiboran maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyat "Ilk qadam" davlat dasturi asosida markazlarda faoliyat va frontal mashg'ulotlar tarzida o'tkaziladi. Pedagoglar ham yangi texnologiyalarni

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

qo'llanilishini aynan shu jarayon bilan bog'laydilar. Aslida esa maktabgacha ta'lim sharoitida innovatsion yangiliklardan foydalanish uchun imkoniyat ko'proq bo'ladi. Chunki tarbiyalanuvchining kunlik faoliyatining asosiy qismi tashkilotda o'tadi. Shuning uchun pedagog kun tartibini o'zi va bolalar individualliklaridan kelib chiqqan holda tashkil etishi mumkin. Tarbiyachidan har doim kreativ fikrlash talab qilinishing boisi ham shundaki, innovatsion texnologiyalar qanchalik turli-tuman ko'rinishda bo'lmasin, ularni qo'llashda hamisha qandaydir noqulayliklar yuzaga keladi. Ana shu jarayonda pedagog o'zining noan'anaviy fikrlash tarziga asoslanib texnologiyani o'z faoliyatiga "moslashtiradi". Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosini o'yinli texnologiyalar tashkil qiladi. Bu yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lganligi bois - u ta'lim texnologiyasi sifatida tatbiq etilgan. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faolligi va tasavvuri tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. Shuning uchun maktabgacha ta'limdagi innovatsion texnologiyalar o'yinli texnologiyalar bilan bog'lanib ketgan. Ammo ularni bir xil qarash deb bo'lmaydi. Tajribali kreativ pedagog ushbu uslublar asosida o'zining "mualliflik" texnologiyasini yaratishi mumkin. Bunda, unga avval egallangan bilimlari va tarkib topgan dunyoqarashi turtki bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar sifatida interfaol metodlardan tarbiyachilar unumli foydalanadilar. Chunki mazkur metodlardan foydalanish orqali har bir bola o'zining individual qobiliyatlarini namoyon eta oladi; mantiqiy o'yinlar o'ynash bolaning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi; atrof-muhit hodisalari haqida aniq tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi; bolani ham ruhan, ham jismonan rivojlantirishda xizmat qiladi; bolalarni o'z oldiga maqsad qo'yib, uni amalga oshirishga o'rgatadi; qiyin vaziyatlar tu'g'ilganda mustaqil ravishda muammoga yechim topishga o'rgatadi. Shu bilan birgalikda bolalarning nutqini ravon bo'lishida, o'z fikrini erkin bayon eta olish ko'nikmasini shakllantirish imkoni yaratiladi. Innovatsion texnologiyalar asosida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini ijodiy tashkil etish, zamonaviy pedagogik yondashuvni qo'llagan holda, o'quvchilarga tabiiy dunyoni o'rganishda qiziqarli va samarali usullarni taklif qilishni maqsad qiladi. Bunday mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

Virtual texnologiyalar: Bu texnologiyalar orqali o'quvchilarni tabiatning turli sharoitlari va ekologik tizimlari bilan interaktiv tarzda tanishtirish mumkin. Virtual borliq immersivlik va interfaollik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Immersivlik-bu shaxsni yoki bolani virtual borliqda o'zini tasavvur etishi. Masalan, Virtual vositalar yordamida bolalar o'rmon ichida sayohat qilish, dengiz tubini o'rganish yoki hayvonot dunyosini yaqindan ko'rishlari mumkin. Interfaollikda shaxs nafaqat virtual olamda o'zini tasavvur etadi, balki u yerdagi obyektlar bilan muloqotda bo'ladi, axbarot almashadi. Bu texnologiyalar bilan hozirgi kunda barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari jihozlanmagan, agar kelajakda bu vositalar barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilsa tabiatni bolalarga yanayam qiziqarli qilib tushuntirib berish mumkin.

Laboratoriyalar va tajribalardan foydalanish. Tajriba- bolalarni tabiat bilan tanishtirishda turli xil jarayonlar va hodisalarni o'rganish hisoblanadi. Masalan: Sensorli texnologiyalar, qurilmalar orqali turli tabiiy resurslar (suvning harorati, havoning namligi)ni o'lchash. Turli xil jarayonlar yoki omillarning xususiyatlarini tajribalar orqali o'rganish.

Interaktiv video materiallardan foydalanish: Tabiat haqidagi bilimlarni bolalarga qiziqarli va vizual tarzda yetkazish uchun animatsiyalar, 3D tasvirlar, multimedia va aqlli doska kabi vositalardan foydalanish orqali tushuntirish.

Xulosa va tavsiyalar: Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida ommalashib borayotgan ta'limiy faoliyatlar innovatsion xarakter kasb etmoqda. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion yangi texnologiya loyihalarini yaratish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirmoqda. Maktabgacha yosh davrida o'yin ustuvor ahamiyat kasb etganligi bois, bolalar bilan interfaol metodlar, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari ko'pincha o'yin tarzida olib boriladi. Tarbiyachilarni innovatsion ta'limga kirib borishlarida eng maqbul o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish, turli xil tajribalar, multimedialardan foydalanish va dastur sifatida joriy etish pedagogik muammo hisoblanadi. Bugungi kungacha eng ustuvor o'yinlar mazmuniga asoslanib, ularni takomillashtirish va ta'lim - tarbiyaviy xarakterdagi talablarga moslashgan innovatsion o'yinlar texnologiyasi tuzilib, qo'lanma sifatida barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tatbiq etilishi lozim. Ana shunda barcha mutaxassislar bolalar bilan faoliyat olib borishda qiyinchilikka kamroq duch keladilar. Bunday innovatsion texnologiyalarni qo'llash, bolalarda tabiatga bo'lgan mehr

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

va hurmatni oshirish, ilmiy izlanishlarga qiziqishni uyg'otish va ekologik bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul)
2. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A, Pardayev A “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” Toshkent 2008, 16 bet
3. O’rinova F., Abduraxmanova Z. TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGNING MAHORATI, SHAXSIY-KASBIY MALAKALARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 386-392.
4. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O’QUV-USLUBIY TA’MINOTI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B3. – C. 349-355.
5. Uljayevna O. R. F., Qizi A. Z. N. TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK KOMPONENTLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B3. – C. 340-344.
6. WWW.ZIYONET.UZ
7. WWW.PEDAGOG.UZ